

BEHBUDIYNING OYNA JURNALIDAGI MUMTOZ MATNLAR TADQIQI

Komilova Feruzabonu Qodirjon qizi,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi magistratura 2-bosqich talabasi

komilovaferuzabonu052@gmail.com

Ilmiy rahbar: Jaloliddin Jo'rayev,

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari doktori*

Annotation. Ushbu tadqiqotda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Oyna" jurnalida chop etilgan mumtoz matnlar tahlil qilinadi. Asarda jadid ma'rifatchiligi g'oyalari, milliy uyg'onish jarayoni hamda o'zbek adabiy tilining rivojlanish bosqichlari yoritilgan matnlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot davomida Behbudiyning publitsistik va adabiy qarashlari, uning jamiyatni isloh qilishga qaratilgan ma'rifiy g'oyalari hamda "Oyna" jurnalining milliy matbuot tarixidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, mumtoz matnlarning til xususiyatlari, uslubiy o'ziga xosligi va ularning zamonaviy adabiyotshunoslikdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, "Oyna" jurnali, jadid adabiyoti, mumtoz matnlar, publitsistika, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, o'zbek adabiyoti, matbuot tarixi, til va uslub.

Аннотация. В данном исследовании анализируются классические тексты, опубликованные в журнале «Ойна» Махмудходжи Бехбудия. Изучаются идеологические и художественные характеристики текстов, отражающие идеи Нового Просвещения, процесс национального пробуждения и этапы развития узбекского литературного языка. В ходе исследования научно анализируются публицистические и литературные взгляды Бехбудия, его просветительские идеи, направленные на реформирование общества, и место журнала «Ойна» в истории национальной прессы. Также рассматриваются языковые особенности классических текстов, их стилистическая уникальность и значение в современной литературной критике.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбудий, журнал «Ойна», современная литература, классические тексты, журналистика, национальное возрождение, Просвещение, узбекская литература, история прессы, язык и стиль.

Annotation. This study analyzes the classical texts published in Mahmudkhodja Behbudiy's Oyna magazine. The ideological and artistic characteristics of the texts, which cover the ideas of the New Enlightenment, the process of national awakening, and the stages of development of the Uzbek literary language, are studied. During the study, Behbudiy's publicistic and literary views, his enlightening ideas aimed at reforming society, and the place of the Oyna magazine in the history of the national press are scientifically analyzed. The linguistic features of the classical texts, their stylistic uniqueness, and their significance in modern literary criticism are also considered.

Key words: Mahmudkhodja Behbudiy, "Oyna" magazine, modern literature, classical texts, journalism, national revival, enlightenment, Uzbek literature, history of the press, language and style.

Kirish. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Oyna" jurnalida chop etilgan mumtoz matnlarni o'rganish o'zbek adabiyot tarixi va jadid ma'rifatchiligi yo'nalishidagi muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuz bergan ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy o'zgarishlar natijasida jadid ziyolilari jamiyatni isloh qilish, xalqning savodxonligini oshirish hamda milliy ongni shakllantirish yo'lida katta ishlarni amalga oshirdilar. Bu jarayonda Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining publitsistik va ma'rifiy faoliyati bilan alohida o'rin egallaydi.

“Oyna” jurnali o‘z davrida jadidchilik g‘oyalari keng targ‘ib etgan, xalqni ma‘rifatga chorlagan muhim nashrlardan biri bo‘lgan. Unda chop etilgan maqola, publitsistik materiallar va badiiy matnlar jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettirib, o‘quvchilarni ilm-fan, taraqqiyot va yangilanishga undagan. Ushbu jurnal sahifalarida e‘lon qilingan mumtoz matnlar o‘zining g‘oyaviy chuqurligi, til boyligi va badiiy ifoda imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy yo‘nalishi “Oyna” jurnalida chop etilgan mumtoz matnlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rganish, ularning uslubiy jihatlarini tahlil qilish hamda Behbudiyning publitsist sifatidagi faoliyatini yoritishdan iboratdir. Shuningdek, matnlarning til xususiyatlari va o‘zbek adabiy tilining rivojlanishidagi o‘rni ham ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi jadid adabiyoti va matbuot merosini chuqur o‘rganish, uning zamonaviy o‘zbek adabiyoti va madaniyatiga ta‘sirini aniqlash zarurati bilan belgilanadi. “Oyna” jurnalidagi mumtoz matnlarni tahlil qilish orqali ularning ma‘rifiy, tarbiyaviy va tarixiy ahamiyatini ochib berish, shuningdek, milliy o‘zlikni shakllantirishdagi rolini yoritish muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Mahmudxo‘ja Behbudi va uning “Oyna” jurnalidagi faoliyati o‘zbek adabiyotshunosligi, matbuot tarixi hamda jadidchilik harakati doirasida keng o‘rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar Behbudiyning ma‘rifatparvarlik g‘oyalari, publitsistik merosi va milliy uyg‘onish davridagi o‘rnini yoritishga qaratilgan.

Jadid adabiyoti va matbuoti masalalari bo‘yicha dastlabki ilmiy qarashlar o‘zbek adabiyotshunos olimlari tomonidan shakllantirilgan. Xususan, N. Karimov, B. Qosimov, S. Ahmedov, A. Madrahimov kabi tadqiqotchilar jadid adabiyotining g‘oyaviy yo‘nalishlari, uning tarixiy ildizlari hamda milliy adabiyot rivojidagi o‘rnini ilmiy asosda tahlil qilganlar. Ularning ishlarida Behbudiyning faoliyati jadid ma‘rifatchiligining yetakchi yo‘nalishi sifatida alohida baholanadi.

Shuningdek, “Oyna” jurnali mazmuni va unda chop etilgan matnlar ham bir qator ilmiy ishlar va maqolalarda o‘rganilgan. Tadqiqotchilar jurnalni o‘z davrining muhim ma‘rifiy va madaniy nashri sifatida baholab, undagi materiallarning ijtimoiy, siyosiy va badiiy ahamiyatini tahlil qilganlar. Jumladan, Behbudiyning publitsistik maqolalari xalqni ilm-ma‘rifatga chaqirish, milliy ongni uyg‘otish va jamiyatni isloh qilish g‘oyalari bilan boy ekanligi ta‘kidlanadi. Xorijiy tadqiqotlarda ham Markaziy Osiyo jadidchilik harakati, uning matbuot an‘analari va madaniy islohotlari yuzasidan ilmiy qarashlar mavjud. Ushbu ishlarda jadid matbuoti Sharq va G‘arb madaniyati o‘rtasidagi integratsiya jarayonining muhim omili sifatida ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyna” jurnalida chop etilgan mumtoz matnlarni o‘rganishda kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, analitik, tavsifiy hamda matn tahlili metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy metod orqali jadid matbuoti va Behbudiyning

publitsistik faoliyati davr kontekstida o'rganildi, analitik va tavsifiy metodlar esa matnlarning g'oyaviy-badiiy hamda uslubiy xususiyatlarini yoritishda qo'llanildi. Shuningdek, matn tahlili usuli yordamida "Oyna" jurnalidagi mumtoz materiallarning til xususiyatlari, ma'rifiy g'oyalari va kommunikativ ahamiyati chuqur o'rganildi.

Tahlillar va natijalar. Mahmudxo'ja Behbudiyning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik faoliyati Turkiston jadidchilik harakatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida baholanadi. Jadidlarning "otasi" hisoblangan Behbudiy (1878–1919) Turkiston yoshlarini ilm-ma'rifatli qilish g'oyasini ilgari surar ekan, jamiyat uchun ikki toifadagi bilimli shaxslarni tayyorlash zarurligini ta'kidlaydi. Birinchi guruh diniy bilim egalaridan iborat bo'lib, ular millatning ma'naviy tayanchi sifatida islom dinining pokligini saqlash va xalqni to'g'ri yo'lga boshlash vazifasini bajarishi lozim edi. Ikkinchi guruh esa zamonaviy dunyoviy ilmlarni egallagan mutaxassislardan iborat bo'lib, ular jamiyatning ijtimoiy va davlat boshqaruvi tizimida xalq manfaatlarini himoya qilishlari kerak edi.[1]

Behbudiy o'z qarashlarida diniy va dunyoviy bilimlarning uyg'unligini muhim deb hisoblaydi va zamonaviy fanlarni o'rganish shariatga zid emasligini asoslashga harakat qiladi. U ilm olish orqali insonlar shifokor, huquqshunos, muallim yoki davlat xizmatchisi bo'lib, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ilm va ma'rifatni egallash musulmonlar uchun zarur bo'lgan diniy vazifa hamdir.[2]

Behbudiyning "Padarkush" dramasida ham ma'rifatparvarlik g'oyalari yorqin ifodalangan. Asarda savodsizlik va tarbiyasizlikning jamiyat va oila hayotiga olib keladigan fojiali oqibatlari ko'rsatiladi. Boy, uning o'g'li Toshmurod va boshqa obrazlar orqali ota-onaning tarbiyada mas'uliyatsizligi, yoshlarning esa ilm-ma'rifatdan uzoqligi salbiy oqibatlarga olib kelishi ochib beriladi. Ziyoli va Domla obrazlari orqali esa ilm olish zarurati, maktab tarbiyasi va oilaviy tarbiyaning uyg'unligi g'oyasi ilgari suriladi.

Asarda ta'lim-tarbiyaning asosiy markazi oila ekanligi, ota-onaning o'z farzandi tarbiyasidagi mas'uliyati juda muhim ekani ta'kidlanadi. Behbudiy jamiyatning taraqqiyoti faqat ilmi va tarbiyali avlod orqali ta'minlanishini qayta-qayta uqtiradi. U boylik va moddiy farovonlik ilm-ma'rifatsiz jamiyatni saqlab qololmasligini ham ko'rsatadi.

"Padarkush" voqealari orqali Behbudiy savodsizlik, ma'naviy bo'shliq va noto'g'ri tarbiya oqibatida yuzaga keladigan jinoyatlar va fojialarni tasvirlaydi. Toshmurodning tarbiyasizligi va yomon muhitga tushib qolishi oxir-oqibat ota o'limiga sabab bo'ladi. Bu holat ilm va tarbiyaning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

1-jadval[3]

Behbudiyning "Oyna" jurnalidagi mumtoz matnlar

№	Mumtoz matn / maqola nomi	Muallif	Mazmuni (qisqacha)	Asosiy g'oya
1	"Bizni(ng) hollar va ishlar"	M.Behbudiy	Turkiston jamiyati holati, ta'lim va matbuot muammolari tahlil qilinadi	Ma'rifat va islohot zarurati
2	"Favqulodda takfir"	M. Behbudiy	Jadid maktablariga qarshi fitna va ruhoniylarning munosabati	Jadidchilikni himoya qilish

			yoritiladi	
3	“Padarkush” (dramadan parchalar va tahlillar)	M. Behbudiy	Oila tarbiyasi, ilm-ma’rifatsizlik oqibatlarini ko’rsatiladi	Ma’rifatsizlik – ijtimoiy fojia
4	Ma’rifat va ta’lim haqidagi maqolalar	M. Behbudiy	Yangi usul maktablari, ilm-fan zarurati haqida	Zamonaviy ta’limni targ’ib qilish
5	Jamiyat va millat haqidagi publitsistik maqolalar	M. Behbudiy	Millat taraqqiyoti, ijtimoiy uyg’onish masalalari	Milliy uyg’onish va taraqqiyot
6	Dunyo yangiliklari va siyosiy sharhlar	Turli mualliflar	Xalqaro voqealar, musulmon dunyosi holati	Dunyo bilan integratsiya
7	Adabiy she’r va badiiy parchalar	Turli mualliflar	Axloq, ma’naviyat va milliy ruhni ifodalovchi asarlar	Ma’naviy tarbiya

Behbudiy o‘z asarlari va faoliyati orqali Turkiston jamiyatini g‘aflat uyqusidan uyg‘otish, xalqni ilm-ma’rifatga yo‘naltirish va yangi usul maktablarini keng joriy etishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan. U o‘z mablag‘i hisobidan maktablar ochish, darsliklar yaratish va ularni bepul tarqatish orqali ta’lim tizimini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Shuningdek, u zamonaviy fanlar bilan birga diniy bilimlarni ham o‘qitishni muhim deb bilgan.

Umuman olganda, Behbudiy faoliyati yangi usul maktablarining shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, u Turkiston jamiyatini ilmi, ongli va taraqqiyparvar qilish yo‘lida fidokorona xizmat qilgan ma’rifatparvar siyomodir.

O‘zbek jadid matbuoti yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotida muhim asosiy bosqich — “oltin beshik” vazifasini bajargan. Behbudiydan Cho‘lpongacha bo‘lgan jadid adiblari o‘z ijodiy qarashlarini aynan dastlabki gazeta va jurnallar orqali shakllantirib, o‘z fikr va badiiy mahoratlarini shu nashrlarda sayqallaganlar. Turkiston jamiyatini zamonaviy ilm-fan va ma’rifat bilan tanishtirish maqsadida turli gazeta va jurnallar nashr etilgan bo‘lib, ular orasida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyna” jurnali alohida o‘rin tutadi. Bu jurnal ma’rifat va madaniyatni keng targ‘ib qilishda katta ahamiyat kasb etgan, unda millat hayoti, huquqlari, tarix, til-adabiyot va dunyodagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga oid dolzarb maqolalar muntazam chop etilgan.[4]

Behbudiy 1913-yildan matbuot faoliyatini yanada kuchaytirib, aprel oyida “Samarqand” gazetasini tashkil etadi. Bu gazeta turkiy va forsiy tillarda haftasiga ikki marta chiqarilgan bo‘lib, dastlab ikki sahifa, keyinchalik to‘rt sahifagacha kengaytirilgan. Moliyaviy qiyinchiliklar sabab 45-sondan keyin gazeta faoliyati to‘xtagan. Shu yilning avgust oyidan esa u “Oyna” jurnalini nashr eta boshlaydi. Suratli haftalik sifatida chiqadigan bu jurnal asosan o‘zbek tilida bo‘lib, ayrim forscha she’rlar, maqolalar hamda rus tilidagi e’lonlarni ham o‘z ichiga olgan.

“Oyna” avval haftalik, keyinchalik 15 kunda bir chiqadigan nashr sifatida qariyb yigirma oy davom etgan. Ziyo Said ta’kidlaganidek, jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va hatto Turkiyagacha tarqalib, musulmon dunyosida keng tanilgan va jadidlar tomonidan juda qadrlangan nashrga aylangan. Uning muharrirlik idorasi Behbudiyning Yangi shahardagi uyida joylashgan edi.

“Oyna” jurnalini muallifning ijodiy kamolotini aks ettiruvchi “oyna” sifatida baholash mumkin. U “Mir’ot”, “Zerkalo” va “Oyna” nomlari bilan to‘rt tilda atalgan bo‘lib, ayniqsa forscha nomi bilan mashhur bo‘lgan. Jurnalda asosan o‘zbek va tojik tillarida maqolalar chop etilgan, rus tilida esa reklama va e‘lonlar berilgan.[5]

Dastlabki yillarda jurnal sahifalarida turli mavzular keng yoritilgan bo‘lsa, keyingi yillarda uning mazmunida ayrim o‘zgarishlar yuz berib, tanqidiy ruh biroz susaygan, she‘riy materiallar ko‘paygan. Bu holat o‘quvchilar tomonidan turlicha qabul qilingan: ayrimlar jurnalni avvalgidek keskin va uyg‘otuvchi bo‘lishini istagan bo‘lsa, boshqalar esa uning yumshoqroq yo‘nalishini tanqid qilgan.

Jurnal faoliyati davomida moddiy va tashkiliy qiyinchiliklar kuchayib borgan, barcha ishlar asosan Behbudiy zimmasiga yuklangan. Shunga qaramay, u matbuot orqali millat uyg‘onishi, ma‘rifat tarqalishi va ijtimoiy fikr shakllanishiga katta hissa qo‘shgan.

Jadid ziyolilari, jumladan Fitrat ham “Oyna” faoliyati haqida tanqidiy fikrlar bildirgan, uning barqarorligi va qo‘llab-quvvatlash yetishmasligi muammosini ko‘rsatgan. Vaqt o‘tishi bilan ayrim mualliflar jurnal bilan hamkorlikni to‘xtatgan, natijada “Oyna” asosan Behbudiy asarlari markaziga aylangan.[6]

1915-yilga kelib jurnal faoliyati to‘xtatiladi. Rasmiy sabablarda muharrirning sog‘lig‘i yomonlashgani va tahrir ishlarini davom ettiruvchi shaxs yo‘qligi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, asl sabablar moliyaviy va tashkiliy muammolar bilan bog‘liq edi.

Umuman olganda, qisqa muddat faoliyat yuritganiga qaramay, “Oyna” jurnali XX asr boshidagi o‘zbek adabiyoti, ilmiy-ma‘rifiy tafakkur va tanqidiy fikr rivojida muhim manba bo‘lib xizmat qildi. U Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodining eng sermazmun va faol davrini yoritib, jadid ma‘rifatchiligi tarixida beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib qoldi.[7]

Xulosa. Jadidchilik harakati XX asr boshlarida Turkiston jamiyatining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida tub burilish yasagan muhim ma‘rifiy oqim sifatida namoyon bo‘ldi. Bu harakat vakillari, xususan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqa jadid ziyolilari millatni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, uni ilm-fan va ma‘rifat sari yetaklashni asosiy maqsad qilib qo‘yganlar. Ularning faoliyati natijasida yangi usul maktablari shakllandi, matbuot rivojlandi va milliy uyg‘onish g‘oyalari keng tarqaldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadidlar tafakkurida ta‘lim-tarbiya, zamonaviy bilimlarni egallash, milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy islohotlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda qaralgan. Ular jamiyat taraqqiyotini faqat ma‘rifat orqali ta‘minlash mumkinligini chuqur anglaganlar va shu yo‘lda katta amaliy ishlarni amalga oshirganlar.

Shuningdek, jadidchilik harakati o‘z davrida nafaqat pedagogik va madaniy yangilanishlarni, balki ijtimoiy ong va milliy tafakkur rivojini ham jadallashtirdi. Bu esa keyingi davr o‘zbek adabiyoti, matbuoti va ma‘rifat tizimi shakllanishiga mustahkam asos bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri”. – Toshkent: Universitet, 1999.
2. Qosimov B. *Maslakdoshlar*. – Toshkent: Sharq, 1994.
3. *Ismoil Gaspirinskiy va Turkiston*. – Toshkent: Sharq, 2005.
4. Avloniy A. *Toshkent tongi*. – Toshkent, 1979. – 373-bet.
5. Tohiriy Y. “Dono murabbiy”. – *Toshkent oqshomi*, 1998, 10-son.
6. Azizzoda L. “Yangi hayot kuzatuvchilari”. – *Fan*, Toshkent, 1998, 37-son.
7. Avloniy A. *Adabiyot yoxud milliy she'rlar*. – 1909, 1–3-betlar.

